

**MEROS SHARTNOMASIDA SUBYEKTLARNING HUQUQ VA
MAJBURIYATLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON
UCHUN TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI**

Abdiyeva Shaxrizoda Amirqul qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti Xalqaro
tijorat huquqi yo‘nalishi magistranti

Anotatsiya: meros — bu nafaqat mol-mulk, balki iroda, ishonch va mas’uliyat hamdir. Maqolada aynan shu jihatdan kelib chiqib, meros shartnomasi institutining huquqiy mohiyati va uning subyektlari bo‘lgan shaxslar — meros qoldiruvchi va merosxo‘rning o‘zaro huquqlari va majburiyatlari tahlil etiladi. Meros shartnomasi bir tomonlama vasiyatdan farqli o‘laroq, o‘zaro ishonch va shartnomaviy mas’uliyatga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik va huquqiy aniqlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada xorijiy davlatlarning huquqiy tizimlaridagi ilg‘or amaliyotlarga suyangan holda, O‘zbekiston huquq tizimida meros shartnomasi institutini joriy etishning huquqiy va amaliy asoslari yoritiladi. Shuningdek, meros munosabatlarini modernizatsiya qilish orqali fuqarolarning mulkiy huquqlarini samarali himoya qilish va vorislik sohasidagi nizolarning oldini olish kabi istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: meros huquqi, meros shartnomasi, meros shartnomasining tomonlari, meros qoldiruvchi va merosxo‘rning huquq va majburiyatlari, shartnoma tuzish erkinligi, meros shartnomasi institutini milliy qonunchilikka takomillashtirish.

Kirish

Hozirgi zamon fuqarolik va meros huquqi rivojlanish tendensiyalari mulkiy munosabatlarni tartibga solishda shartnomaviy mexanizmlarni

kengaytirishga qaratilgan. Bundan tashqari meros munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ham qonun mustahkamlab qo‘yilgan¹. Ana shunday mexanizmlardan biri — meros shartnomasi bo‘lib, u vasiyatnomadan farqli ravishda ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida tuziladigan bitim sifatida, meros qoldiruvchining o‘limidan keyin uning mulki qanday taqsimlanishini oldindan belgilab qo‘yadi.

Mazkur institut Germaniya, Shveysariya, Avstriya, Rossiya va boshqa rivojlangan romano-german huquqiga mansub mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi fuqarolik qonunchiligida esa meros shartnomasi instituti hali mavjud emas. Biroq amaliyot va ijtimoiy ehtiyoj bu kabi shartnomaning joriy etilishini taqozo etmoqda.

Meros shartnomasi — bu meros qoldiruvchi va uning ehtimoliy vorislari o‘rtasida tuziladigan shartnoma bo‘lib, unda mol-mulk meros qoldiruvchining o‘limidan keyin qanday va kimlarga o‘tadi, shuningdek, voris qanday majburiyatlarni bajarishi lozimligi belgilab qo‘yiladi. Bu shartnoma vasiyatnomadan farqli ravishda, o‘zaro huquq va majburiyatlar yuzaga kelishiga asoslanadi, bu esa huquqiy aniqlikni ta‘minlash va kelajakdagi nizolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Meros huquqining subyektlari meros qoldiruvchi va merosxo‘rga ajratib talqin qilinadi. Merosxo‘r sifatida faqatgina jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Merosxo‘r — meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar hamda meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holatida bo‘lgan va meros ochilgandan

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (01.05.2023 yilda kuchga kirgan., 03/23/837/0241-son) Elektron manbaa <https://lex.uz/docs/6445145>.
SJIF:5.219

keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.

Vasiyat bo‘yicha har qanday shaxs — qarindoshlik aloqasi va darajasidan qat’iy nazar, qonun bo‘yicha esa marhumning oila a‘zolari, qarindoshlari hamda qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar merosxo‘r bo‘lishi mumkin.

Meros shartnomasining subyektlari — bu mazkur shartnomani tuzishda ishtirok etuvchi tomonlardir. Meros shartnomasining ishtirokchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko‘ra, fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lishi va ularni amalga oshirishi, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirishi va ularni bajarishi layoqatiga, yani muomala layoqatiga ega bo‘lishi, u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga kelishi belgilab o‘tilgan. Shuningdek, ushbu kodeksning 30-moddasiga ko‘ra, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunchilikda belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi va bunday fuqaroga vasiylik belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Yuqoridagi qonun talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, meros shartnomasi ishtirokchilari 18 yoshga to‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqaro bo‘ligshi kerak. Asosiy subyektlar quyidagilar hisoblanadi, ya’ni meros qoldiruvchi – o‘zining vafotidan keyin mulki qanday tartibda va kimga o‘tishini belgilovchi shaxs hisoblanadi. Meros qoldiruvchi sifatida to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin. Bu talab, avvalo, shartnomani tuzishda shaxsning ixtiyoriy va ongli ravishda qaror qabul qilishini ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi. Keyingi subyekt bu merosxo‘r - meros

shartnomasiga muvofiq, meros olish huquqiga ega bo'lad yoki ayrim majburiyatlarni zimmasiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1118-moddasida merosxo'rlar sifatida kimlar hisoblanishi belgilangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalar. Ular vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin. Shuningdek, meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin².

O'zbekiston Respublikasida merosni taqsimlash jarayonida merosxo'rlar beshtalik navbat asosida merosni qabul qilishadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga ko'ra, birinchi navbatdagi vorislar qatoriga - meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar.

Ikkinchi navbatdagi merosxo'rlar tarkibiga - Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar.

²O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025 y., 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

Uchinchi navbatdagi merosxo'rlar tarkibiga - Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar.

To'rtinchi navbatdagi merosxo'rlar tarkibiga - Meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bo'lgan boshqa qarindoshlari qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar, bunda yaqinroq qarindoshlar uzoqroq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar.

Beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'lgan shaxslar jumlasiga meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari kiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari jumlasiga quyidagi shaxslar kiradi, ya'ni Meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida bo'lgan va u bilan birgalikda yashagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasiga kiradi. Qonun bo'yicha boshqa merosxo'rlar bo'lgan taqdirda, mehnatga qobiliyatsiz boqimlar vorislikka chaqirilayotgan navbatning merosxo'rlari bilan birgalikda meros oladilar³.

Mehnatga qobiliyatsiz fuqarolar deganda voyaga yetmagan, ya'ni 18 yoshga to'lmagan shaxslar, nogironlik guruhi qayd etilganlar, 60 yoshdan oshgan erkaklar, 55 yoshdan oshgan ayollar hamda tibbiy xulosa asosida mehnatga layoqatsiz yoki nogiron deb topilgan fuqarolar tushuniladi⁴.

³O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025 y., 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

⁴J.I. Yuldashev "Vorislik va oila huquqi". Darslik. yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYUI nashriyoti, 2024. -31-b.

Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzishda qonun bilan belgilangan majburiy ulush huquqiga ega shaxslarning huquqlarini buzmasligi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga ko‘ra, majburiy ulush huquqiga ega shaxslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: voyaga yetmagan farzandlar yoki mehnatga layoqatsiz bo‘lgan farzandlar. Meros qoldiruvchining qaramog‘ida bo‘lgan va mehnatga layoqatsiz shaxslar (masalan, nogironlikka ega bo‘lgan yaqin qarindoshlar) Bu shaxslar merosning ma’lum bir qismiga, ya’ni “majburiy ulush”ga da’vo qilish huquqiga ega, hatto vasiyatnomada ularning nomi ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham. Shuning uchun meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzayotganda ushbu shaxslarning huquqlarini hisobga olishi shart.

Meros shartnomasini tuzishning birinchi bosqichi sifatida meros qoldiruvchi va merosxo‘r o‘rtasida shartlar bo‘yicha o‘zaro kelishuv amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayon tomonlarning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi, ya’ni hech qanday majburlash, bosim yoki aldov holatlari mavjud bo‘lmasligi kerak. Bu holat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, unda shartnoma tuzish erkinligi tamoyili belgilangan⁵. U vasiyatnomadan farqli o‘laroq, tomonlarning o‘zaro roziligi va majburiyatlariga asoslanadi. Nemis olimlari, xususan, Rainer Frank ta’kidlaganidek, meros shartnomasi shartnoma huquqi va meros huquqining sintezi sifatida mulkiy munosabatlarni tartibga solishda barqarorlikni ta’minlaydi⁶.

⁵O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025 y., 03/25/1060/0373-son)<https://lex.uz/docs/180552>

⁶ Германское гражданское уложение: Вводный закон к Германскому уложению: перевод с немецкого / Науч. Ред. А.Л.Маяковский и др. – 2-е издание, доп. Науч. – М.:ВолтерсКлувер, 2006. –с.534.

Meros shartnomasining ilk belgilari Rim xususiy huquqida ham, vasiyatnomaga binoan va qonun bo'yicha meros qilish tartiblari bilan bir qatorda kuzatilgan. Bu yerda u "ishonchli bitim" (pactum fiduciae) deb nomlangan. Mazkur bitimga muvofiq, oila boshlig'i emancipatsiya qilingan o'g'illarining mulkdagi ulushiga meros huquqi asosida da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan, bu esa o'zaro kelishuvga asoslangan. Rimlik yuristlar tomonidan ilk bor meros shartnomasining huquqiy tushunchasi, ya'ni "o'lim holatida mulkni tantanali topshirish to'g'risidagi huquqiy kuchga ega bo'lgan harakat" va ushbu mulkni qabul qiluvchi "tabiiy merosxo'r maqomini olgan shaxs" sifatida umumiy yondashuv shakllantirilgan⁷. "Boshqa nemis olimi L. Graf esa meros shartnomasini quyidagicha ta'riflaydi: "bu ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tuziladigan o'lim holatiga oid tasarruf bo'lib, unga ko'ra meros qoldiruvchi shartnomaning boshqa tomonini yoki uchinchi shaxsni o'zining merosxo'ri sifatida tayinlaydi"⁸. O'zbekiston qonunchiligida meros shartnomasi alohida institut sifatida aniq tartibga solinmagan bo'lsa-da, u shartnoma huquqining umumiy qoidalari va meros huquqiga oid normalar asosida amalga oshiriladi. Meros shartnomasida meros qoldiruvchi mulkni kimga, qanday shartlar asosida va qaysi hajmda o'tkazishni belgilash huquqiga ega. Merosxo'r ham o'z o'rnida shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega. Kelishuv jarayonida tomonlar mulkning turi (ko'chmas mulk, transport vositasi, qimmatli qog'ozlar va boshqalar), merosxo'rning majburiyatlari (masalan, moddiy yordam, parvarish) va

⁷Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35

⁸Graf H.L. Nachlaßrecht. Handbuch der Rechtspraxis. 8 Auflage. München: C.H. Beck'scheVerlagsbuchhandlung, 2010. – p.99.

shartnomaning amal qilish muddati kabi masalalarni muhokama qiladi. Masalan, meros qoldiruvchi o'z uyini merosxo'rga o'tkazishni shart qilib, buning evaziga merosxo'rdan hayoti davomida oylik xarajatlarni to'lashni talab qilishi mumkin. Kelishuv ixtiyoriy va qonuniy bo'lishi kerak. Agar shartnoma majburlash yoki aldash yo'li bilan tuzilsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Meros shartnomasi yozma shaklda hamda notarial tasdiqlangan tartibda tuzilishi kerak va unda barcha shartlar aniq va ravon ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Shartnoma matnida tomonlarning shaxsiy ma'lumotlari, mulkning aniq tavsifi, merosxo'ring majburiyatlari va shartnomaning amal qilish shartlari kabi muhim jihatlar kiritiladi. Shartnomada noaniqliklar yoki ikki xil talqin qilishga imkon beruvchi iboralar bo'lmasligi kerak, chunki bu kelajakda nizolarga olib kelishi mumkin.

Shartnoma majburiy ulush huquqiga ega shaxslarning (voyaga yetmagan farzandlar, mehnatga layoqatsiz qaramog'idagilar) huquqlarini buzmasligi kerak. Meros shartnomasining vasiyatnomadan farqiga to'xtaladigan bo'lsak, vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo'lib, faqat meros qoldiruvchining xohishiga asoslanadi. Meros shartnomasi esa ikki tomonlama kelishuv bo'lib, merosxo'ring roziligi va majburiyatlarini talab qiladi. Bu xususiyat uni yanada barqaror va nizolarni kamaytiruvchi mexanizmga aylantiradi.

Meros shartnomasi faqat uning tomonlari hayotligida o'zgartirilishi mumkin. Meros qoldiruvchining merosxo'ri vafot etgan taqdirda, meros shartnomasi bekor qilinadi, chunki meros shartnomasi ishtirokchisi o'rniga vakillik huquqi asosida meros olishga yo'l qo'yilmaydi. Meros shartnomasi shartlarini o'zgartirish bo'yicha tomonlar o'zaro kelishuvga muzokaralar orqali yoki sudga

murojaat qilish yo‘li bilan erishishlari mumkin. Mazkur kelishmovchiliklarni hal qilish maqsadida tomonlar meditatsiya tartibidan ham foydalanishlari mumkin.

Meros shartnomasi shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar bunday holat yuz bersa, boshqa tomon bunday harakatni sud tartibida nizo qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Meros munosabatlari fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari kesishuvida turgan, o‘ta sezgir va huquqiy yechimni talab etuvchi munosabatlar toifasidandir. Amaliyotda vasiyatnomalarning mavjud emasligi, noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi, yoki merosxo‘rlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelayotgan ko‘plab nizolar meros masalasini oldindan huquqiy jihatdan yechim topish zarurligini ko‘rsatadi. Bu muammolarni hal etishda zamonaviy va shartnomaviy yondashuv – meros shartnomasi instituti samarali huquqiy vosita sifatida maydonga chiqadi.

Qiyosiy-huquqiy tahlillar shundan dalolat beradiki, Germaniya, Shveysariya, Avstriya kabi rivojlangan davlatlarda meros shartnomasi orqali meros qoldiruvchi va merosxo‘r o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar oldindan aniq belgilab qo‘yiladi. Masalan, Germaniya Fuqarolik kodeksida meros shartnomasi batafsil tartibga solinadi. Germaniya qonunchiligida meros shartnomasi nafaqat mol-mulkni taqsimlash, balki merosxo‘rlarning muayyan majburiyatlarini, masalan, meros qoldiruvchiga umrboqiy moddiy yordam ko‘rsatishni ham ko‘zda tutishi mumkin. Fransiyada esa meros shartnomasi (pacte successoral) oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va mol-mulkning taqsimotini aniq belgilash uchun qo‘llaniladi. Bunday shartnomalar o‘z yuridik kuchiga ega bo‘lib, ular tomonlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, merosga oid kelishmovchiliklarning oldini

oladi va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu bilan birga, shartnomaviy asosda vorislik masalalarining tartibga solinishi mulkiy munosabatlarda shaffoflik va huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

Shveysariya huquqida meros shartnomasi "ijobiy" va "salbiy" turlarga bo'linadi. Ijobiy meros shartnomasi merosxo'r yoki merosni belgilashga qaratilgan bo'lsa, salbiy meros shartnomasida merosdan voz kechish bo'yicha vorislar o'rtasida kelishuv tuziladi va ular kelgusida merosga da'vo qilmaslik majburiyatini oladi. Salbiy meros shartnomasi, asosan, qonuniy majburiy ulush egasi bo'lgan shaxs bilan tuziladi. Bu Shveysariya huquqiy tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi⁹. Ko'pgina davlatlar qatori Avstriyada ham meros shartnomasi nikoh shartnomasining bir qismi sifatida tuziladi¹⁰. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, meros shartnomasining taraflari sifatida rasmiy nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki unashtirilgan juftliklar hisoblanadi.

O'zbekiston qonunchiligida hozircha bunday institut mavjud emas. Vorislik munosabatlari asosan qonun bo'yicha va vasiyat asosida tartibga solinadi. Biroq bu shakllar har doim ham murosaga olib kelmaydi va ko'p hollarda sud nizolariga sabab bo'ladi. Shu boisdan, meros shartnomasi institutini milliy fuqarolik qonunchiligiga joriy etish nafaqat zamonaviy huquqiy amaliyot talabidir, balki jamiyatdagi shaxsiy va oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Meros shartnomasi orqali:

-taraflar o'rtasidagi o'zaro ishonch kuchayadi;

⁹Shveysariya fuqarolik kodeksi (01.09.2023 qabul qilingan)// Fedlex.admin.ch.Federal Law. 2023. Elektron manbaa::https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en.

¹⁰"Всеобщий гражданский кодекс Австрии" от 01.06.1811 (с изм. и доп. по состоянию на 27.07.2010) // КонсультантПлюс : справ. правовая система. Версия Проф. М., 2023. Режим доступа: локальная сет Науч. б-ки Том. гос. ун-та.

- yuridik aniqlik ta'minlanadi;
- fuqarolar o'z irodasini erkin ifoda etadi;
- ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda barqarorlik yuzaga keladi;
- sud ishlari va huquqiy bahslar kamayadi.

Shunday ekan, meros shartnomasi institutini ishlab chiqish, uni qonunchilikda mustahkamlash va amaliy jihatdan tatbiq etish — O'zbekistonda fuqarolik huquqining zamonaviylashuvi yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida qaralishi lozim. Ushbu institut orqali fuqarolar o'z mulkiy manfaatlarini samarali himoya qilishlari, oilaviy meros munosabatlarini huquqiy kafolat bilan ta'minlashlari, asosiysi merosxo'r va meros qoldiruvchining huquq va manfaatlarini qonunan mustahkamlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi) <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1-qism // (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi) <https://lex.uz/docs/111189>.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism // (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi) <https://lex.uz/docs/180552#198603>.

4. J.I.Yuldashev “Vorislík va oila huquqi”. Darslik. yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYUI nashriyoti.
5. Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35
6. Graf H.L. Nachlaßrecht. Handbuch der Rechtspraxis. 8 Auflage. München: C.H. Beck’scheVerlagsbuchhandlung, 2010. – p.99.
7. Германское гражданское уложение: Вводный закон к Германскому уложению: перевод с немеского / Науч. Ред. А.Л.Маяковский и др. – 2-е издание, доп. Науч. – М.:ВолтерсКлувер, 2006. –с.534.
8. Shveysariya fuqarolik kodeksi (01.09.2023 qabul qilingan)// Fedlex.admin.ch.Federal Law. 2023. Elektron manbaa::https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en.
9. Всеобщий гражданский кодекс Австрии, от 01.06.1811 (с изм. и доп.по состоянию на 27.07.2010) // КонсультантПлюс : справ. правовая система. Версия Проф. М., 2023. Режим доступа: локальная сет Науч. б-ки Том. гос. ун-та.